
Ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi Nafisa Nuriddinova tomonidan o'tkazilgan "Sab'ayi sayyor" dostoni tahliliga bag'ishlangan ochiq dars mazmunli va samarali o'tdi

Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi **Nafisa Nuriddinova tomonidan** o'tkazilgan **"Sab'ayi sayyor" dostoni tahliliga bag'ishlangan ochiq dars** mazmunli va samarali o'tdi. Dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanilgani ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qildi. **"Beshinchisi ortiqcha", "Venn diagrammasi", "Yosh savodxon", "Yetti sayyora", "Toifalash", "Mozaika", "Oltin meros", "Ranglar jilosi", va "Yetti sayohatchi" kabi metodlar** doston mazmunini chuqur o'rganishga yordam berdi. Bu metodlarning har biri o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirib, adabiy asarni yanada yaxshi tushunishlariga ko'maklashdi. Ochiq dars nafaqat o'quvchilar, balki ishtirok etgan pedagoglar uchun ham foydali bo'lib, zamonaviy dars metodikalarining samaradorligini yana bir bor tasdiqladi.











SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati